


Chakana savdo tovar aylanmasi 2017 yilning 12 oyida 9017,2 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,4 foizga oshdi.


Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 7,0 foizni tashkil etdi. Iste'mol tovarlari, tamaki mahsulotlari, benzin va alkogolli ichimliklarga bo'lgan talabning oshishi yirik korxonalarining o'sish sur'atini o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,6 foizga ko'payishiga olib keldi.

2017 yil yanvar-dekabr oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati. (mlrd so'm, foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Samarqand shahri (25,7 foiz), Urgut tumani (14,4 foiz), Pastdarg'om tumani (8,0 foiz), Kattaqo'rg'on shahri (6,1 foiz) va Bulung'ur (4,9 foiz) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi (foizda)



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshi 2446,5 ming so'mni tashkil etdi (2016 yil yanvar-dekabr oylarida 2102,2 ming so'mni tashkil qilgan edi).

O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Kattaqo'rg'on shahri (6342,3 ming so'm), Samarqand shahri (4404,6 ming so'm) va Urgut tumanida (2718,9 ming so'm) kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 170552,2 mln. so'mni tashkil etdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 1,9 foizni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

Shahar va tumanlar nomi	Ming. so'm	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Samarqand shahri	4404,6	100,7
Kattaqo'rg'on shahri	6342,2	98,7
Bulung'ur tumani	2489,0	98,6
Jomboy tumani	1511,0	99,1
Ishtixon tumani	1519,3	99,0
Kattaqo'rg'on tumani	1614,5	98,4
Narpay tumani	1789,2	98,9
Nurobod tumani	2660,8	99,1
Oqdaryo tumani	1549,3	98,6
Payariq tumani	1567,0	98,4
Pastdarg'om tumani	2140,0	99,1
Paxtachi tumani	2530,4	98,9
Samarqand tumani	1535,9	99,6
Tayloq tumani	1473,3	98,3
Urgut tumani	2718,9	99,9
Qo'shrabot tumani	2635,9	98,3


Viloyatda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2446,5 ming so'mni va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 99,3 foizni tashkil etdi, shundan Samarqand shahri (4404,6 ming so'm) o'tgan yilga nisbatan 100,7 foizni, Kattaqo'rg'on shahri (6342,3 ming so'm) 98,7 foizni, Jomboy tumani (1511,0 ming so'm) 99,1 foizni, Samarqand tumani (1535,9 ming so'm) 99,6 foizni, Urgut tumani (2718,9 ming so'm) va o'tgan yilga nisbatan 99,9 foizni tashkil etdi.

O'TGAN DAVRLARDA KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,6 foizga o'sdi.

Umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 93,0 foizini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik umumiy tovar aylanmasining deyarli 6,2 mlrd. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 68,7 foizni tashkil etdi .



Kichik va mikrofirmalarning chakana tovar aylanmasi (2188,2 mlrd. so'mni) o'tgan yilga nisbatan 106,6 foizni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 24,3 foizni tashkil etdi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi.
Tel: 71—230-85-23**